

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA TOVUSH O‘ZGARISH HODISALARI

Orziqulova Zarina

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : Shaxnoza Muxtorova .

Annotasiya : *Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydigan asosiy tovush o‘zgarish hodisalari fonetik qonuniyatlar asosida tahlil qilinadi . Tovush o‘zgarishlari turli fonetik va morfologik omillar ta’sirida yuzaga kelishi , til taraqqiyoti hamda so‘zlarning talaffuz va yozilishdagi farqlarini yuzaga keltirishi yoritiladi. Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydigan fonetik hodisalardan biri bo‘lgan tovush o‘zgarishlari tizimli tahlil qilinadi . Tovush o‘zgarishlari , tilning tarixiy taraqqiyoti , shevalar va adabiy til o‘rtasidagi munosabat , hamda og‘zaki va yozma nutqdagi tafovutlar asosida o‘z ifodasini topadi . Maqolada tovushlarning o‘zgarish shakllari hamda tovush cho‘zilishi kabi hodisalar fonetik qonuniyatlar asosida yoritiladi . Har bir hodisaning amaliy misollar orqali izohi berilib ularning adabiy tilga ta’siri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar : *fonetik hodisalar, pozitsion omillar , kombinator omillar , tovush tushishi , assimilyatsiya , reduksiya , tovush , ottenka.*

Kirish. Til jamiyat taraqqiyotining ajralmas vositasi bo‘lib , undagi har bir fonetik hodisa mantiqan asoslangan qonuniyatlarga tayangan holda shakllanadi. O‘zbek adabiy tilida ham tovushlar o‘zgarib , muayyan talaffuz hamda morfologik shaklga moslashadi. Fonetik hodisalar — nutq oqimida so‘z yoki marfemalar tarkibida yuz beradigan turli fonetik o‘zgarishlar. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida kombinator , pozitsion yoki aralash (kombinator pozitsion) va boshqa omillar ishtirok etadi.

Asosiy qism . Kombinator omillar ta’sirida yuz beradigan fonetik hodisalar.

Nutq tovushlarining qo‘shni tovushlar ta’sirida miqdor va sifat belgilarining o‘zgarishi kombinator o‘zgarishlar deyiladi . Nutq tovushlarining kombinator o‘zgarishlariga akkomodatsiya , assimilyatsiya va nzalizatsiya kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba’zan bu hodisalarni o‘rganuvchi bo‘lim kombinator fonetika deb ham ataladi.

Assimilyatsiya — bir xil kategoriyadagi tovushlarning so‘z tarkibida o‘zaro moslashuvi. O‘zaro ta’sirda bo‘lgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko‘ra assimilatsiya quyidagi ikki turga bo‘linadi :

a) Progressiv assimilatsiya – oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga moslashtirishi : otdi – otti , o‘tdi –o‘tti , sotdi –sotti. Ushbu fe‘l so‘z turkumidagi so‘zlardagi ” t ” jarangsiz undosh tovush keyin kelgan "d " jarangli tovushni o‘ziga moslashtirmoqda va shu shaklda talaffuz etilmoqda.

b) Regressiv assimilyatsiya – keyingi tovushning oldingi tovushni o‘ziga moslashtirishi : tuzsiz – tussiz , birta –bitta . Ushbu ” tuzsiz ” so‘zida ” s ” jarangsiz undosh tovush oldin kelgan ” z ” jarangli tovushni o‘ziga moslashtirdi va natijada shu shaklda talaffuz etilmoqda.

Akkomodatsiya — turli kategoriyalardagi tovushlarning masalan unli bilan undoshning o‘zaro ta’siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan , ” kisht ” va ” qish ” so‘zlarini oladigan bo‘lsak ”kisht ” so‘zida ” i ” tovushining old qator ottenkasi , sayoz til orqa ” k ” undoshiga moslashgan. ” Qish ” so‘zida esa ” i ” tovushining orqa qator ottenkasi , chuqur til orqa ” q ” undoshiga moslashgan. Bundan tashqari yana quyidagi misollarni keltirib o‘tsak bo‘ladi ; kul – qul , ko‘l – qo‘l. Shu o‘rinda ” ottenka ” atamasiga ta’rif berib o‘tamiz. Ottenka - tovushlarning tildagi real ko‘rinishi.

Dissimilatsiya – so‘z tarkibidagi bir xil tovushlardan birining boshqa tovushga ko‘chishi. Bu hodisaga misol qilib ” birorta – bironta ” , ” zarur – zaril ” , ” doktor – duxtur ” , ” uchta – ushta ” , ” uyqu –uyxu ” va shu kabilarni keltirib o‘tsak bo‘ladi . Chunki bu so‘zlar shu shaklda talaffuz qilinadi.

Pozitsion omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan hodisalar.

Bu hodisalarga reduksiya , so‘z oxirida ochiq bo‘g‘inda tor unlilarning biroz kengayishi va jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishi kabi hodisalar kiradi. Har biriga ta’rif va misollar keltirib o‘tamiz.

Reduksiya — unli fonemaning urg‘usiz bo‘g‘inda kuchsizlanishi. Misol qilib , ” bilan , biroq ” so‘zlarini keltiradigan bo‘lsak, bunda ” i ” unlisining kuchsizlangan , qisqa (bilinar - bilinmas) talaffuz etiladigan kuchsiz ottenkasi yuzaga kelgan.

So‘z oxirida ochiq bo‘g‘inda tor unlilarning biroz kengayishi. Bunda ” bordi , keldi , aytdi ” so‘zlarini oladigan bo‘lsak , tor ” i ” unlisining biroz kengaygan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi.

Jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishi. Misol uchun , maktab - maktap , kitob - kitop , obod - obot kabi so‘zlarni keltirsak so‘z oxiridagi jarangli tovushlar talaffuzda jarangsizlanadi.

O‘zlashma so‘zlarda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlari ta’sirida yuz beradigan o‘zgarishlar.

O‘zbek tilida bunday moslashishning quyidagi turlari uchraydi ; proteza , epenteza, epiteza (austeza) .

Proteza — so‘z boshida tovush orttirilishi. Masalan , rus - o‘ris , ro‘za - o‘raza , ro‘mol - o‘ramol , shkaf - ishkop , stakan - istakan.

Epenteza — so‘z o‘rtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar tarkibida yuz beradi – ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlarga moslashtiriladi. Misol : klubnika - qulupnay , plan - pilan , shoir - shoyir , shior - shiyor .

Epiteza — so‘z oxirida tovush orttirilishi. Bu hodisa ko‘proq so‘z oxirida qatorlashib kelgan sk , nk kabi undoshlardan so‘ng yuz beradi. Otpusk - otpuska , optik - optika , bank - banka .

Fonetik hodisalarning yana bir nechta turlari mavjud.

1. Tovush tushishi . So‘z so‘z o‘zagidagi yoki unga qo‘shilgan qo‘shimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning ma’lum fonetik qurshov yoki pozitsiya ta’sirida talaffuz etilmasligi. Bu hodisaning quyidagi turlari mavjud :

a) prokopa , ankopa – so‘z boshidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa asosan tarixiy planda yuz bergan bo‘lib , hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. Yilon - ilon , yog‘och - og‘och , yigna - igna.

b) sinkopa so‘z o‘rtasida tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida ko‘proq uchraydi . O‘zak morfemaga affiks morfema qo‘shilganda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga ko‘chib o‘zakdagi unlik kuchsizlanadi va tushib qoladi. Masalan , ko‘ngil - ko‘ngli , singil - singli , o‘g‘il - o‘g‘li , shahar - shahri.

d) apokopa – su‘z oxiridagi tovushning yoki qo‘shma so‘z komponentining tushirib qoldirilishi : baland - balan , xursand - xursan , podshoh - podsho , g‘isht - g‘ish , go‘sh - go‘sh . Qo‘shma so‘z komponentining tushirib qoldirilishi asosan ruscha leksik o‘zlashmalarda uchraydi : metropoliten - metro , kilogramm - kilo .

2. Eliziya – unli tovush bilan tugagan so‘zga unli bilan boshlangan so‘zning qo‘shilishi natijasida oldinga unli tovushning tushishi. Masalan , ayta oldi - aytoldi, Dili orom - Dilorom .

3. Sandxi hodisasi – analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar. Misol uchun , ishlar edi - ishlardi , borgan emish - borganmish . Bu hodisa o‘z tabiatiga ko‘ra eliziyaga juda ham yaqin.

4. Aferezis – oldingi so‘zning so‘nggi tovushi ta’sirida keyingi so‘z boshidagi tovushning tushishi: ne uchun - nechun , mulla aka - mullaka.

5. **Metateza** – soʻz tarkibidagi tovushlarning oʻrin almashuvi. Bu hodisa koʻproq jonli soʻzlashuvga, ayniqsa, shevaga xos boʻlib adabiy tilda kam uchraydi: daryo - dayro, tuproq - turpoq, toʻgʻramoq - toʻrgʻamoq, ahvol - avhol, aylanay - aynalay.

6. **Gaplalogiya** – yasama soʻz tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil boʻgʻindan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa koʻproq ixchamlashtirish asosida sodir boʻladi, masalan, tragikomidiya - tragikkomediya, mineralogiya - mineralologiya, morfonologiya - morfofonologiya.

7. **Gemenatsiya** – ikkita bir xil undoshning soʻz tarkibida qavatlanishi. Bunday qavatlanish maʼlum uslubiy maqsadlarda yuzaga keladi. Masalan, eshshak - eshak, yashshamagur - yashamagur kabi soʻzlar koyishni bildiradi va "sh" tovushi qavatlangan. Yana misol keltiradigan boʻlsak, mazza, judda, rossa, kabi soʻzlarni aytsak boʻladi.

8. **Spirantizatsiya** – ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida sirgʻaluvchi undoshga oʻtishi: bora ber - boraver, kabob - kavob, taroq - tarogʻi kabi.

Tovush oʻzgarish hodisalari oʻzbek adabiy tilining fonetik tizimida doimiy va muhim jarayonlardan biridir. Ular nafaqat nutq qulayligini taʼminlaydi, balki, tildagi leksik va grammatik birliklarning shakllanishida ham bevosita ishtirok etadi. Har bir fonetik oʻzgarish tilining rivojlanish bosqichlarida oʻz meʼyorini topgan, shevalar va tarixiy nutq namunalarida esa boy tafovutlar bilan namoyon boʻlgan. Ushbu oʻzgarishlarning tahlili orqali oʻzbek tilining ichki qonuniyatlari, dialektologik xususiyatlari hamda adabiy tilga taʼsir etuvchi omillarni chuqurroq anglash mumkin boʻladi. Tovush oʻzgarishlarini oʻrganish, bir tomondan, zamonaviy adabiy til meʼyorlarini mustahkamlashga, ikkinchi tomondan esa til taraqqiyoti va undagi dinamikani ilmiy tahlilga xizmat qiladi. Ayniqsa bu hodisalarni oʻquv jarayoniga kiritish, til madaniyatini oshirish hamda oʻzbek tilining fonetik merosini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchraydigan tovush oʻzgarish hodisalari tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllangan boʻlib, fonetik tizimning tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Ushbu hodisalar ogʻzaki va yozma nutqda, shevalarda, adabiy tilning tarixiy bosqichlarida va hatto individual talaffuzlarda ham oʻz ifodasini topadi. Tovush oʻzgarishlarining asosiy turlari asimiliatsiya, dissimilatsiya, metateza, eliziya, epenteza, proteza talaffuz qulayligi va nutq tezligini taʼminlashga xizmat qiladi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, fonetik oʻzgarishlar bir qarashda faqat ogʻzaki nutqqa xosdek tuyulsada, ularning adabiy til normativ meʼyorlariga taʼsiri ham mavjud. Jumladan koʻplab fonetik hodisalar yozma tilga ham singib ketgan yoki meʼyoriy variantlar shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek tildagi morfologik shakllanish, soʻz yasalishi va hatto urgʻu tizimining oʻzgarishlarida ham fonetik omillar muhim rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Hasanboy Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili . Toshkent - 2013.
2. M . Qayumov . Hozirgi o‘zbek adabiy tili . Toshkent - 2010.
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/fonetik-o-zgarishlarning-boshqaturlari>.
4. Q. Muydinov, R . Ikramov. Tilshunoslik asoslari. Toshkent - 2024.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fonetik_o%CA%BBzgarishlar